



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Usarov Jabbor Eshbekovich¹
Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna²

¹Toshkent viloyati ChDPI p.f.d.(DSc),

²TVCHDPI Psixologiya kafedrasи p.f.f.d.(PhD)
lazizbek_9400@mail.ru +99891 226 92 25

YOSHLARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATI VA FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotation. Maqolada ta'lim jarayonida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda pedagogik

va psixologik asoslar hamda ularning ijodiy salohiyatini o'r ganishning natijalari xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, barcha ta'lim maskanlarida tahlil berayotgan o'qituvchilar o'z shogirdlarining ijodiy salohiyati va mahoratini rivojlanish uchun ularning intellektual sifatlarini aniqlash hamda o'r ganishlari zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar. Intellektual salohiyat, iqtidor, taraqqiyot, kuzatuvchanlik, ijodkorlik, xarakter,xususiyat.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ
РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СИЛЫ И АКТИВНОСТИ
МОЛОДЕЖИ**



Аннотация. В статье раскрываются педагогические и психологические основы интеллектуального потенциала обучающихся в учебном процессе. Автором отмечается, что обучения творчеству и развития одарённости необходимо выявлять и изучать в раннем школьном возрасте. Эти мероприятия будут способствовать развитию интеллектуальной способности молодёжи.

Ключевые слова. Интеллектуально творческий потенциал, логичность, одарённость, способность, наблюдательность, внимательность,

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL POWER AND ACTIVITY OF YOUTH

Annotation. The authors noted, pointed to teachers assigned tasks, work with talented children creative one of the main areas of activity of the head. Acquire pedagogical and psychological foundations, intellectual potential youth in the educational process, creativity and talent and his appearance, social historical nature, the study of the creative intellectual potential.

Key words. Talent, creating, management, creators, puzzles, development, attention, influence, logics, human psyche.

Kirish (Introduction) Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, kommunikatsion vositalardan keng foydalanish, hamda yoshlarning intellectual salohiyatlarini rivojlantirishga keng imkonoyatlar yaratilmoqda. Jumladan, ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda ma'lum bir maqsad belgilab olinadi, qonunlar qabul qilinadi, dasturlar va tadbirlar ishlab chiqiladi, rejalar belgilanadi va bular hozirgi talab darajasida amalga oshiriladi. Demak, ta'lim-tarbiya oldida loyihalash, ma'lum pedagogik tizimning amalga oshiriladigan loyihasi, qurilishi pedagogik texnologiyadir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda “shaxsni shakllantirish” ham ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir. Ya'ni barkamol shaxs tarbiyasining maqsadi, mazmuni, tarbiya metodlari, shakllari va vositalari mavjud bo'lib, bu ham o'ziga xos texnologiyadir.



O'quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash jarayonida maktab direktori, o'quv hamda yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rnbosarlari o'z funksional imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda sinf rahbari va maktab amaliyotchi psixologining vazifalariga jiddiy e'tibor berishlari, ta'lim tizimida pedagogika va psixologiya fanlarining ilmiy-nazariy imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatib berishlari, zamonaviy talablarga mos yangi vazifalarni bajarish, o'quvchilar qobiliyati va imkoniyatlariga muvofiq ravishda, ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuv, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va yangi axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha to'liq imkoniyatlarni yaratib berishlari lozim.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Prezidentimizning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat" asarlarida umuminsoniy qadriyatlarni tiklash haqidagi mulohazalarida ta'lim-tarbiya masalalarini faollikka asoslangan tamoyillarga o'tkazish, o'sib kelayotgan yosh avlodni yangiliklarni tez qabul qilishga undash, istiqlol yaratgan keng imkoniyatlardan foydalanib, faoliyatimizning hamma sohalarida yuksak natijalarga erishish haqida so'z yuritilgan.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik barcha o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, tinimsiz izlanish olib borishi hamda o'quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda xalq ta'limi sohasiga yosh mutaxassislar kelib qo'shilishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa, o'z navbatida, maktab rahbarlari oldiga yanada yangi vazifalar qo'yadi. Shunday ekan, inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoa rahbarlari to'g'ri tushunishlari lozim.

Ma'lumki, hozirgi fan-texnika rivojining ta'siri o'quvchilardan o'qishga va mehnatga ongli munosabatda bo'lishni talab etmoqda. Shu maqsadda respublikamizdagi ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar orqali ta'limtarbiyani tubdan o'zgartirish, samarali an'anaviy uslublarni saqlab qolgan holda yangi uslublarni yaratish, ilg'or o'qituvchilarning tajriba-sinov ishlari orqali amaliyotga qo'llash kabi qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtida sinfdagi

o‘quvchilar o‘zlashtirishining sifati, sinfdan tashqari ishlarning uyushtirilishi maktab va oilaning aloqasini mustahkamlash, o‘qituvchilarning bolalarga nisbatan qo‘yadigan talablarida birlik bo‘lishini ta’minlashi kabi muhim vazifalarni hal etish uchun javobgar shaxs bo‘lishini sharoitning o‘zi talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Sharq uygonish davri (9 -11asrlar) qomusiy olimlari Abu Nasr al Farobi (873 –1037) shunday ijtimoiy pedagogik g‘oyalarni aytib itganlarki, bolani ayni godaklik chogidanoq tarbiyalay boshlashning zarurati, shuningdek, bolaning tarbiyasiga tabiat atrof muhitning tasiri va boshqa fikrlar kabitdir. 15 – 16-asrlarda Markaziy Osiyoda tabiatshunos-faylasuflari, tarixchi, shoir va rassom-musavvirlari o‘z ijodlarida ijtimoiy fanlarga alohida etibor bilan qarab, tabiat sirlarini o‘rganishga intilganlar.

Bular qatorida Nuriddin Abduraxmon Jomiy (1414 – 1492), Jaloliddin Davoniy(1427 – 1502), Alisher Navoiy (1441 – 1501), Husayn Voiz Koshifiy (1440 – 1505) o‘z asarlarida inson aqli tafakkuri, uning qobilyati, insonning alohida axloqiy xislatlari, insoniylik g‘oyalari, bolalar tarbiyasida umuminsoniy qadriyat hisoblanadi. Shu jumladan, o‘zbek tilini asoschisi buyuk alloma, musiqachi, davlat arbobi, Alisher Navoiyning ijtimoiy pedagogik goyalari, yuksak darajada insonparvarligi bilan ajralib turadi. U insonni butun koinotda, bu olamda eng oliy mavjudod deb hisoblagan. Bolani esa oilaga quvonch ham baxt keltiruvchi muqaddas inom sifatida uyni yoritib yuboradi deb hisoblaydi.

Tajribali pedagoglar o‘quvchilarni har tomonlama kamol toptirish uchun o‘qitishda fanlararo aloqalarni amalga oshirish, og‘zaki guruhiy yoki yakka suhbatlarni ustun qo‘yish, suhbatlarda kitobxonlar ichki dunyosini bilish kabi imkoniyatlardan foydalanishni yaxshi yo‘lga qo‘ya olgan. Prezidentimiz aytganlaridek, “Kelajagimiz yoshlar qo‘lida...”. Darhaqiqat, bugungi mashaqqatli mehnatimizning mahsulini kelajak ko‘rsatadi. Bugungi kunda iqtidorli, iste’dodli yoshlarimiz ham kam emas. Faqat biz ularni dars jarayonida, darsdan tashqari tadbirdarda, to‘garak mashg‘ulotlari mobaynida aniqlab olishimiz va ularning qiziqishlarini inobatga olishimiz, to‘g‘ri yo‘l yo‘riqlar ko‘rsata olishimiz kerak.



Maktab o‘quvchilari orasida iqtidorli bolalarni saralash, ular bilan ishlash, qiziqishlari, qobiliyatlarini o‘rganish, iqtidorlikni rivojlantirish mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning dolzarb va katta istiqbolli yo‘nalishlaridan biri – o‘sib kelayotgan yosh avlod orasidan iste’dodli, zukko bolalarni saralash va faolligini oshirish, ularning zamонавиј maktablarda boyitilgan, mazmunli dasturlar asosida o‘qitish, ularga keng imkoniyatlar yaratib berish va tez fursatda xalq xo‘jaligining turli sohalari uchun malakali mutaxassislarni yetishtirishdir. Shunday ekan, ta’lim muassasalari o‘quvchilari orasidan asosli ravishda iqtidorlilarni layoqati, qobiliyati va qiziqish yo‘nalishlariga qarab u yoki bu sohaga, kasb-hunarga to‘g‘ri yo‘naltirish har bir o‘qituvchining, psixologning, maktab rahbarining oldida turgan eng asosiy dolzarb vazifalardan biridir. Iqtidorli bolalarni saralash va ularning bilim olishlarini to‘g‘ri tashkil etishda yechimini topish kerak bo‘lgan muammolar talaygina. Bu muammolarni bartaraf etish uchun, eng avvalo, rahbar kadrlar o‘z faoliyatiga tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etmog‘i pedagog kadrlar bilan samarali ishni tashkil qilmog‘i lozim. Unda har bir pedagog, ota-onva tarbiyachi boladagi iste’dodni ko‘ra biliши va his eta olishi lozimligi bo‘yicha yo‘riqnomalar berilishi, unga amal qilinishi talab etiladi. Buning uchun esa, ular iste’dodli va iqtidorli bolaning individual psixologik va fiziologik xususiyatlari haqida umumiyl ma’lumotga yoki tasavvurga ega bo‘lishlari shart.

Shu o‘rinda maktabda bilim olishga intilayotgan iqtidorli bolalar bilan olib borilishi lozim bo‘lgan ishlar haqida qisqacha to‘xtalib, ularga xos bo‘lgan ba’zi bir psixologik-fiziologik xususiyatlarni ko‘rsatib o‘tish lozim. Iqtidorli bolalarning o‘ziga xosligi nimada? Iste’dodning ilk ko‘rinishi bolaning yoshlik chog‘idanoq namoyon bo‘la boshlaydi. Bu – bolada nutqning erta paydo bo‘lishi va juda ko‘p bo‘lgan lug‘at boyligidir. Ular tevarak-atrofda sodir bo‘layotgan voqeliklarga qiziquvchan bo‘ladilar. Mutaxassislarning e’tirof etishlaricha, iste’dodli bolalarning xotiralari juda yaxshi rivojlangan bo‘lib, ularda uzoq muddatgacha bo‘lib o‘tgan voqeа-hodisalarini, ko‘rgan-bilgan narsalarini eslab qolish va kerak paytda uni yana qayta xotirada tiklash imkoniyatlari kengdir. Iqtidorli bolalarni o‘rganishimiz va aniqlashimiz uchun, avvalombor, “Iqtidorli bola bilan ishlash” metodikalarini



to‘liqligicha o‘rganib chiqib qo‘llash zarur. O‘qituvchi iqtidorli bolalarni uylariga borib, ularning qo‘snilari, ota-onalari va bolaning o‘zi bilan suhbat o‘tkazishi zarur va berilgan savollarga javoblar olinishi lozim. Olingan natija qayta ishlab chiqilib, undan bolaning rivojlanishiga kerak bo‘lgan omillar aniqlanadi.

Iqtidorli bolalar bilan maxsus ishlar olib borish, qobiliyatli o‘quvchilarni kelajakda o‘z Vataniga, xalqiga foyda keltiradigan, uning nomini butun jahonga tanitadigan, olimlar, sportchilar, davlat arboblari, siyosatchilar sifatida tarbiyalab voyaga etkazishga imkon beradi. Iqtidorli bolalar qobiliyatlarini yuzaga chiqshi uchun harakat qilish va ular bilan muntazam ishlash bugungi kunda nafaqat pedagoglar, balki mahalla, oila va maktab rahbarlarining ham asosiy vazifalaridan biri bo‘lmogi lozim.

Ma’lumki, keyingi o‘n yil ichida ta’limni isloh qilishda, milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta’limning barcha darajalari va bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarning ma’naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, ta’lim olishda, shuningdek, bolalar va yoshlarni ma’naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish ishlari jadal sur’atlar bilan olib borilmoqda.

Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishning maqsadi:

– yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va uni muhofaza qilishdan iboratdir;

– ilm-fan va davlat hokimiyati hamjihatligidagi sa’y-harakati, shuningdek, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, intellektual zaxiralarni muhofaza qilish va rivojlantirish:

– intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini tartibga solish;

– yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi psixologikpedagogik tashkiliy-uslubiy asoslarini yaratishdan iborat.


Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni belgilab olish lozim:



- iqtidorli o‘quvchi-yoshlarni izlash mexanizmi, psixologik-pedagogik, tashkiliyuslubiy asoslarini yaratish borasidagi kamchiliklarni aniqlash;
- intellektual ijodiy salohiyatni oshirishda tarbiya jarayonining xususiyatlarini o‘rganish;
- yoshlarning mustaqil faoliyat turlarini o‘rganish;
- yoshlarning ma’naviy intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish manbalarini yaratish;
- yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini oshirish usullarini ishlab chiqish;
- yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganib chiqish;
- fanning turli sohalaridagi mutaxassislar intellektual salohiyatini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- ta’lim menejmenti sohasida innovatsion takliflarni;
- bo‘lajak rahbar kadrlarning intellektual salohiyatini oshirish va ko‘maklashuvchi (xorijiy) yuridik malakani o‘rganish va me’yoriy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish.

Bugungi kunda olib borilayotgan ijodiy intellektual salohiyatni rivojlantirishga oid barcha ishlarning sifat samaradorligi talab darajasida emas. Talim tizimidagi talablardan kelib chiqib, o‘quvchilarning tahsil olishi davomida intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish ishlarini muvaffaqiyatli olib borish zarur. Bu esa, tarbiya jarayoniga psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni, zamon talabi darajasida mutlaqo yangi tarbiya tizimini yaratishni talab qiladi. O‘quvchilarga yo‘naltirilgan tarbiya tizimi o‘qituvchidan yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda tarbiya uslubiyotlariga alohida munosabat bilan yondashishni, uslubiyatni hamda mavjud holatni to‘liq o‘rganishni, jarayonga ijodiy muhitni olib kirishni taqozo etadi. Buning uchun har bir o‘quvchining kundalik ish faoliyatini kuzatishimiz va har bir o‘quvchining psixologik dunyoqarashi bo‘yicha ma’lum xulosalarga ega bo‘lishni maqsad qilib qo‘ymog‘imiz lozim.

Faoliyat turlari:



Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yoshlarning umumiy faoliyat turlarini birma-bir o‘rganmasdan turib ularning ijodiy salohiyatiga baho bera olmaymiz. Chunki o‘quvchi o‘rganilayotgan fanni “a’lo” va “yaxshi” o‘zlashtirishiga qarab, uning iste’dodini baholashimiz ham noto‘g‘ri uslubdir. Ma’lumki, bir yo‘nalishni chuqur o‘zlashtirib, tor mutaxassislik doirasida “a’lo” bo‘lib, ixtisosligi bo‘yicha o‘qitilayotgan fanlarni yaxshi o‘zlashtira olmasligi mumkin.

Buning uchun barcha ta’lim maskanlarida tahsil berayotgan ustozlarimiz o‘z shogirdlarining ijodiy salohiyati va mahoratini rivojlantirish uchun ularning intellektual sifatlarini o‘rganishlari zarur bo‘ladi:

- kuzatuvchanligi, dars jarayonida har bir fikrning mazmuniga e’tibor berishi;
- mantiqiyligi, o‘zaro suhbat jarayonida mantiqiy fikr ayta olishi;
- ijodkorligi, jumboqlar yechimini topishi, yozma bayonoti;
- demokratik erkin fikr yurita olish mahorati,adolatliligi;
- kuzatish orqali fikrini asoslab berishi;
- o‘z fikrini o‘zgartirmaslik darajasi;
- o‘z ustida ijodiy ish olib borish qobiliyatini;
- kundalik yangiliklardan xabardorligiga e’tibor qaratiladi.

Yoshlarning intellektual sifatlarini o‘rgangan holda ular bilan muntazam ish olib borish uchun ta’lim jarayonida yuqorida zikr qilingan usullardan foydalanishni



nazarda tutish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, har bir ta’lim maskanida o’tkaziladigan ta’limiy tadbirlar, tanlov va musobaqalar ham yoshlarning ilmiy va ijodiy intellektual salohiyatini oshirishga juda katta yordam beradi. Buning uchun har bir ustoz o’zi tanlagan shogirdining mahoratini oshirib borish uchun barcha usullarni qo’llay olishi, o’quv maskani ma’muriyati tomonidan tashkil etilayotgan tadbirlarni o’z vaqtida muntazam o’tkazilishini o’rganib borishi lozim. Insonning kamol topish jarayonini faqat irsiyat, ijtimoiy muhit va ta’limtarbiyaga bog’lab o’rganish, talqin qilish ham haqiqatga unchalik to‘g’ri kelmaydi. Chunki ijtimoiy taraqqiyotda shaxsning o’zi ham faol ishtirok etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Shuni ta’kidlash joizki, ijtimoiy muhitda ta’lim-tarbiyaga shaxsning o’zi faol ishtirok etgandagina uning tug‘ma layoqatini uyg‘otadi, iste’dod, qobiliyatlarini o’stira oladi.

Fanlarda o’zlashtira olmagan o’quvchilarni qobiliyatsiz deyish xato, o’qituvchining birinchi galdag'i vazifasi – har bir o’quvchining yosh va psixologik xususiyatini chuqur o’rganish, uning qiziqishi va istaklarini aniqlash, ularni hisobga olgan holda pedagogik chora-tadbirlarni ko‘rishdir. Umuman, pedagogik jihatdan to‘g’ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy hamda irodaviy rivojlanishiga ijobjiy ta’sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kaldibekova A., Xodjayev B. Pedagogik aksiologiya. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. 49-50-b.
2. Mardonov Sh. Pedagogik ta’lim tizimida talimiyl qadriyatlardan foydalanish. // Xalq ta’limi. – T., 2005. №6. 24-28-b.
3. Raxmanova M.Q., Talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik qadriyatlarning ahamiyati, // Xalq ta’limi. – T., 2016. № 4. 6- b,
4. Бондаревская Е.В., Кульневич СВ. Педагогика: личность в гуманистических теориях и системах воспитания. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1999.– С. 50.



5. Raxmanova M.Q., O‘quvchilar kasbiy ta’limining psixologik jihatlari va motivlari. // ЎзМУ хабарлари. – Т., 2021. № 1/3. 114-116 б,
6. Занина Л.В., Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства.– Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – С. 239.
7. Джураева Б.Р. Формирование педагогической культуры будущих учителей в процессе профессиональной подготовки при изучении дисциплин педагогического цикла: Дис. ... канд. пед. наук. – Т., 2002. – С. 48.
8. Daniyarov. B.X, Asadov. Y.M, Zokirov. I.I.larning umumiy tahriri ostida. Ustoz va shogirdga eslatma. – Т., 2010.
9. Qurbanov. Sh, Seyithalilov. E. Ta’lim sifatini boshqarish. – Т.: “Turon-Iqbol”.
10. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. –Т., 1999. 2006.